

OILADA BOLALARINI XALQ OG'ZAKI IJODI NAMUNALARI ASOSIDA TARBIYALASH MAZMUNI

Umurova Ma'rifat Yoshiyevna

Buxoro davlat universiteti pedagogika kafedrasи o'qituvchisi

m.y.umurova@buxdu.uz

Annotatsiya:

Maqola oila va maktabgacha ta'linda xalq og'zaki ijodini o'rgatish orqali ularda vatanga muhabbat, milliy urf odad va an'analarimizga sadoqat ruxida tarbiyalash, e'tiqodni shakllantirish masalalariga qaratilgan.

Kalit so'zlar: xalq og'zaki ijodi, umuminsoniy qadriyat, ma'naviy meros, axloq, ma'naviy-axloqiy tarbiya, afsona, rivoyat, urf-odatlarini, qadriyat va an'ana, doston.

Ma'naviy shaxs, xalq, davlat va jamiyatning kuch-qudrati, taraqqiyoti, imkoniyatlari va istiqbollarini belgilab beruvchi ichki ijobiy, ruhiy omildir. Demak, ma'naviyatli inson bilimli, ma'lum kasb – hunar sohibi, o'z Vatanining sodiq fuqarosidir. O'z davlati qonunlarini biladigan va ularga amal qiladigan, yurti bilan g'ururlana oladigan inson. O'z Vatani boyliklarini saklaydigan uni yanada boyitadigan, go'zalliklardan bahramand bo'ladigan shaxs. U har qanday zararli illatlarga qarshi kurashadigan, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni avaylab asraydigan insondir.

Axloq – ma'naviyatning tarkibiy qismi sifatida shaxs kamolotining yuqori boskichi sanaladi. Zero, axlok me'yorlarisiz shaxsning ruhiy va jismoniy etukligining mezoni bo'lgan ma'naviy kamolotga erishib bo'lmaydi. Shuning uchun ham ma'naviy-axloqiy tarbiyada uzviylik, aloqadorlik dialektik xarakterga ega bo'lib, shaxsning ma'naviy-axloqiy shakllanishida muhim sanaladi.

Ma'naviy-axloqiy tarbiya va unga quyiladigan talablar bu jamiyatda ma'lum ijtimoiy-axloqiy talablarga mos axloqiy hislatlarni shakllantirish maqsadida yosh avlod ongi, hissiyotlari hamda hulqiga mavofiq va tizimli ta'kir etishdir.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash vazifalari quyidagilardan iborat:

Maktabgacha yoshdagi bolalarni ma'naviy-axloqiy ongini shakllantirish.

Ularda ma'naviy-axloqiy his-tuyg'ularini tarbiyalash va rivojlantirish.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda xulq-atvor ko'nikma va odatlarini tarkib toptirish.

Ma'naviy-axloqiy tarbiya mazmunida milliy va umumisnoniy qadriyatlarni tiklash masalasining kun tartibiga qo'yish zaruriyatining yuzaga kelganligi munosabati bilan tub o'zgarishlar yuz berdi.

Bundan tashqari maktabgacha ta'lim muassasasida bolalarga qadriyat sifatida munosabatda bo'lish ham dolzarb ahamiyatga ega bo'lib bormoqda. Bu esa o'z navbatida maktabgacha yoshdagi bolalarda ma'suliyatni his etish, ongli intizomga riosa etish ko'nikmalarini tarbiyalaydi. Shuningdek, vatanpavarlik, xalqlar o'rtasida do'stlik va hamkorlik, ma'suliyatni his etish, burch, ornomus, vijdonlilik, tartiblilik,adolatlilik va boshqa hislatlar tarbiyasi katta ahamiyatga ega.

Ma’naviy-axloqiy tarbiya ko’p bosqichli va murakkab jarayon bo’lganligi sababli uzliksiz ta’limning barcha bosqichlarida shakllanadigan fazilatlarni va aniq bolalar majmuini shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Maktabgacha yoshdagi bolalarni ma’naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirish murakkab jarayon. Chunki maktabgacha ta’lim muassasasida bola turli ma’naviy-axloqiy tushunchalar, ya’ni vatanparvarlik, insonparvarlik, jasurlik, do’stlik, o’rtoqlik, burch, vijdonlilik, sadoqatilik, imonlilik, mehnatsevarlik kabilarga duch keladi.

Maktabgacha ta’lim yoshdagi bolalarning xotirasi juda kuchli taraqqiy etganligini hisobga olsak, berilayotgan har bir manbani bola juda tez yodlab oladi, ammo voqeligiga har doim to’g’ri baho bera olmaydi. Ikkinchi bola materiallardagi ma’no va mazmunini ham yaxshi tushunib etavermaydi. Shuning uchun ham tarbiyachilarimizga o’tilayotgan mashg’ulotlarni tushunarli va bolalarga ma’lum so’zlar bilan etkazishdir. Olib borilayotgan mashg’ulotlarni xotirada olib qolish bilan birga fikrlash, tafakkuri, hayol, tasavvur ancha taraqqiy etib boradi, mashg’ulot jarayonida mustaqil fikri orqali tushuntirib bera olish ko’nikma va malakalariga erisha boradi.

Maktabgacha ta’lim yoshdagi bolalarning ma’naviy-axloqiy hislarini to’la shakllanmagan, biroq bu hil munosabat uning hayotida muhim rol o’ynaydi. Bu yoshdagi bolalarning fahm-farosati, qiziqishi, intilishlari, tengdoshlari hayoti bilan ko’proq bog’liq bo’lib, anna shu tengdoshlari jamoasidagi voqealari munosabatini namoyish qiladi.

Yuksak ma’naviy darajada bo’lish, sof vijdonlilik, printsiplilik, boshqalarga o’rgatayotgan narsaning o’zing bekamu- ko’st bajarib borishing kerakligi-bular shunday xislatlarni, bolalar, avvalo, o’zlarining diqqat va e’tiborlarini manna shu xislatlarga qaratadilar desa bo’ladi, bolalar garchi xali yosh bo’lsalar ham, lekin ularda tarbiyachining shaxsiga qiziqish juda katta bo’ladi, shuning uchun ham ularning kuzatuv nazarida biror nimani yashirish qiyin.

Allomalardan Razouddin ibn Faxriddin aytadi:

- Har bir odam va har bir elning saodatli bo’lishiga bosh sabab ilmdir. Ekinlar uchun yomg’ir, sug’orish qanday kerak bo’lsa, odam bolasi uchun ham ilm shu darajada keraklidir.

Bolalarni ilimli, odobli qilib o’strish ota-onaning burchidir. Agar muallim esangiz, shogirdlaringizning har bir harakatini ko’z oldingizga tuting, ularni xush muomalali bo’lishiga o’rgating, jamiyatni foydali a’zolari qilishga erishing. Bolalarni nojo’ya so’z, nojo’ya xattixarakatdan to’xtab qolishga o’rgatib o’zi esa o’zini to’xtata olmaydigan, bolalarni do’stlik, o’rtoqlikka o’rgatib, o’zi esa, ular bilan o’rtoq, do’st sifatida emas balki katta rahbar sifatida muomalada bo’ladigan tarbiyachi yomon tarbiyachidir.

Bola aqliy va ahloqiy jihatdan faqat kattalarning to’g’ridan- to’g’ri ta’sirida tarbiyalanadi, kamolga etadi. Hech qanday shakllar, hech qanday intizom, hech qanday ustov hamda mashg’ulotlari inson shaxsini ta’sirini sun’iy ravishda almashtirishi mumkin emas.

Ma’naviy-ahloqiy tarbiya samaradorligi tarbiyachining mazkur faoliyatiga maxsus yo’naltirilganligiga bog’liqdir;

bog’cha, oila ma’naviy-ahloqiy tarbiya hamkorligi ma’naviy- ahloqiy ishlar samaradorligi shartnomalaridan biridir;

maktabgacha tarbiya mutaxassisliklarini tayyorlaydigan muassasalarda tashkil etiluvchi ma’naviy-ahloqiy ishlarning muvaffaqiyati ta’lim-mazmunidan, ma’naviy-ahloqiy tarbiya maqsadlarida foydalanishni takomillashtirishga bog’liq;

-ma’naviy-ahloqiy sifatlar tarbiyachining o’z kasbiga fidoyiligi tarbiyalanganlik darajasi va pedagogik mahoratiga bog’liq;

maktabgacha tarbiya mutaxassislar o’zlarining ish faoliyatida bolaning yosh ilmli, mahalliy, ruhiy, jinsiy, shaxsiy xususiyatlarini xisobga olishi tarbiyalanganlik mezonlari va darajalarining amaliyotga joriy qilinishi ma’naviy-ahloqiy ma’rifiy ishlarning samaradorligini belgilaydi

Maktabgacha yoshdagagi bolalarda shakllanishi lozim bo'lgan fazilatlarni xuddi shunday tartibda tasniflash, ularni shakllantirish lozim bo'lgan mehanizmlarini, shakl, metod va vositalari, kutiladigan natijalarni aniq belgilab olish o'zining yuqori samarasini beradi.

Bolalar ta'lim-tarbiyada o'z xalqining milliy xususiyatlarini his qila olish, milliy udumlardan unumli foydalanishni bilish, sharqona odob-ahloq normalariga rioya qilish malakasini egallash.

Bolalar bilan muloqot va munosabatda mehrli, samimi, adolatli bo'lish kabi xususiyatlarni egallashi.

Mustaqillik tufayli Respublikamizning ijtimoiy- iqtisodiy ma'naviy hayotida tub islohatlar amalga oshirilayotgan bir sharoitda, bu yangilanayotgan jamiyat mutahassislarini tarbiyalash muhim vazifalardan sanaladi.

Bu vazifa o'z navbatida ta'lim-tarbiya mazmunini yangi talablar asosida o'zgartirishni, barcha o'quv yurtlarida yosh avlodni milliy-ma'naviy qadriyatlar ruxida o'zbek xalqining tarixiy, madaniy hamda ma'rifiy merosi asosia tarbiyalashni taqozo etadi.

Asrlar mobaynida xalqimiz asrab kelayotgan umuminsoniy, milliy va ma'naviy qadriyatlarini ro'yobga chiqarish va ulardan davr talabidan kelib chiqib foydalanishda yangi davr boshlandi. Madaniy merosimiz, ma'naviy boyligimizni har tomonlama imiy o'rganish, tahlil qilishi va ta'lim-tarbiya sohasida qo'llashga keng imkoniyatlar yaratilgan. Har tomonlama komil insonni pedagogik qadriyatlarimizda odob, ahloq pardasidagi insoniy fazilatlar zamirida asoslab berilgan.

O'z-o'zini el ishiga bag'ishlagan inson tarbiyasiga mutaffakir ma'rifatparvarlarni g'oyalari va ta'limotlari bugungi kun yoshlar tarbiyasida dastur amaldir.

Kishilik tarixi yaratgan ma'naviy boyliklar bisotida xalq yaratgan boy meros va pedagogik qadriyatlar alohida o'rinni egallaydi. Jamiyatda ma'naviy-ahloqiy shaxs shunday vaqtida kuchli shaxsni, agar millionlab kishilarning milliondan bir zarrasini tashkil etilgan holda, o'ta millionlar yo'naltira olsa, jamiyat va uning salohiyatini ko'tara olsa, xalqning g'am-anduhlari, tashvishlari bilan yashay olsa, o'zini oq yuvib, oq taragan xalqiga kamarbastalik qila olgan shaxs fidoiydir.

Ma'naviy-ahloqiy meros, ya'ni, birinchi galda, milliy ozodlik va milliy qadriyatlar tuyg'usini tushunmoq lozimdir. Markaziy Osiyo xududi qadimda Xorazm, Turon, Guliston singari nomlar bilan atalgani tarixdan ayon; O'zbek o'zining o'zligi va ahloqi bilan boshqa millatlardan farqlanib kelingan. Buning uchun xalqimiz farzandlariniadolat va ahloqli qilib tarbiyalashda o'tish ruh bilan sug'orish, bobolarimiz ibrati ruhida tarbiyalashga xarakat qilishgan.

Bizningcha, ma'naviy-ahloqiy tarbiya manbai, vosita va metodologiyasi sifatida muqaddas Qur'oni Karim hamda Muhammad allayxiyssalom hadislariga, shuningdek, Az-Zamaxshariy, Islom Buxoriy, At-Termiziy, Naqshband, Ahmad Yassaviy, Sulaymon Boqirg'oni singari allomalarining asarlariga va o'gitlariga tayanish lozim.

Halq og'zaki ijodiyoti ham insonlarga nisbatan quyidagi qarashlar mavjud edi: Rivoyatlarda: «vatanparvarlik», «jon-fidoiylik», «insoniylik», el yurt uchun o'zini va jonini ayamaslik, timsolida komil insonga xos aql va zakovatni yanada taranglashtirishga xizmat qiladi».

Rivoyatlar afsonalardan hayot haqiqatiga anchayin yaqinligi bilan farq qiladi. Agar to'laligicha xalqimiz tomonidan o'ylab topilgan to'qima hikoyalardan iborat bo'lsa, rivoyatlar hayotda ro'y bergen qandaydir tarixiy voqealarga asoslanadi. Ular mazmunida afsonalardan deyarli farq qilmaydi, ammo bu asarlar zamirida tarixiy ildizi mavjud bo'ladi. U ko'pincha sodir bo'lgan o'tmishdagi voqea ishtirokchisi tomonidan yozib qoldiriladi yoki aytib beriladi. Barcha qadimgi xalqlar qatori ajdodlarimiz ham og'izdan og'izga ko'chib yuruvchi ko'plab badiiy namunalarga ega.

Jannatmisol yurtimiz qadim zamonaldayoq do'stlarga havas uyg'otib kelgan. Bir tomondan osmono'par tog'lar, shaffov buloqlar. Bir tomondan yam-yashil vodiy, uchi – qirg'og'i ko'rinasmas

o'tloqlar. Suruv-suruv qo'y-qo'zilar, yilqi uyirlari. Bir tomonda obod qishloqlar, mevazor bog'lar, yuz hunarlik ko'rakm shaharlar va ahil, mehnatkash xalq.

Bunday o'lkani qo'lga kiritishni istagan istilochilar ko'p bo'lgan, albatta. Bunga tarix guvoh. Lekin mard va jasur bobolarimiz Vatanni dushman qo'liga osonlikcha bergan emaslar. Har bir qarich er uchun jang qilganlar, jon olib, jon bergenlar, qahramonlik namunalarini ko'rsatganlar. Bu shiddatli voqealar mana necha asrlardirki, tildan – tilga, avloddan-avlodga o'tib yashab keladi. Biz ularni qahramonlik afsonalari deymiz. Afsona deyilishiga sabab shuki, ular tildan tilga o'tar ekan, sayqallahшиб, lekin asl voqealardan uzoqlashшиб, sirli tus olib borgan. to'maris, Shiroq, Alp Er To'ng'a, Siyovush va Rustamning jasoratlari haqidagi afsonalar manna shu siraga kiradi. Ular qadim ajdodlarimiz hayotidan hikoya qiladi.

O'zbek xalq og'zaki ijodida rivoyatlar avlodlar dunyoqarashi va pedagogika olamining ko'zgusi bo'lib, komil insonni tarbiyalashda o'ziga xos bebafo qadriyatlardan biri hisoblanadi. Zero, rivoyatlar qahramonlarining sarguzashtlari, ularning qiyinchiliklarni engib, har jihatdan chiniqi borishi har bir yosh uchun ibratdir. Ana shu asosdan kelib chiqib, rivoyatlar xalqning o'zligini, tilini, urf-odatlarini, qadriyat va an'analarini ifodalab beruvchi ko'zgu ekanligini alohida ta'kidlab o'tish joiz. Rivoyatlarning maktabgacha yoshdag'i bolalarda milliy qadriyatlar ruhidagi tarbiyalashdagi imkoniyatlari birinchidan: rivoyatlarda tasvirlangan qadriyatlarda insoniy munosabatlar madaniyati o'z ifodasini topgan. Masalan, kattalar bilan kichiklar, otalar va farzandlar, hunarli va hunarsizlar munosabati, o'sgan erga Vatanga bo'lgan muhabbat singari sifatlar shular jumlasidandir. Ikkinchidan:adolatsizlik, nohaklik, ochko'zlik, zulm va shafqatsizlik ko'rinishlariga nisbatan murosasiz bulishni tushunib etish lozim. Uchinchidan: avlodlar o'rtasidagi vorisiylikda umuminsoniy ahloqiy me'yorlar va tamoyillar mavjuddir. To'rtinchidan: sevgi, sadoqat, mehr, muhabbat, jasorat, qahramonlik va fidoiylik kabi maktabgacha yoshdag'i bolalarni yuksaklikka undovchi his-tuyg'ular, qarashlar ham rivoyatlarda o'z ifodasini topgan.

Markaziy Osiyoning eng qadimiy xalqlaridan biri bo'lgan o'zbek xalqi ma'naviy-madaniyat tarixida so'z san'atining qadimgi turi hisoblangan xalq ijodi, ayniqsa dostonlar g'oyat faxrli o'rinn tutgan. Mehnatkash xalq ommasining g'oyaviy, axloqiy ma'rifiy va estetik takomilida xalqning asrlar davomida turmush tajribalari, ozod va farovon hayotga intilishlari,adolatsizlikka qarshi kurashlari o'z ifodasini topgan. Bu borada «Alpomish» dostonining ahamiyati juda kattadir.

O'zbek halk dostonlari jahon xalqlari eposlari singari o'zining yuksak g'oyaviyligi, badiiy kamoloti bilan alohida o'rinn tutadi. Doston epik ijodiyotning juda qadimiy turi sifatida barcha xalqlar og'zaki adabiyotida mavjud epos xalq hayotining ob'ektiv – bayoniy xarakterda tasvirlovchi keng qo'lamlı, ko'p tarmoqli asardir. Unda o'tmishdagi ulkan burilishlar, keskin o'zgarishlar aks etadi. Halq og'zaki ijodiy asarlari esa yaratilish jihatidan mehnatkash xalq bilan bevosita aloqada bo'lganligi uchun ham bu sohada benihoya kata ahamiyatga ega bo'lgan materiallarga boydir.

Doston so'zi qissa, hikoya, shonu-shuxrat, sarguzasht, ta'rif va maqtov ma'nolarida ishlataladi. Uning ijodiy tarixi yillar bilan emas, balki asrlar bilan o'lchanadi. Tadqiqotchilarining yozishicha, doston o'tmish zamonlar to'g'risida qahramonlik g'oyaviyligi qo'lamidagi hikoyalar, rivoyatlardir. Akademik V.M.Jirmunskiy ta'rificha: «Epos – bu (doston) xalqning qahramonlik idealizatsiyasi qo'lamidagi jonli o'tmishdir. Uning ilmiy tarixiy qimmati, ayni paytda, juda katta ijtimoiy, madaniy tarbiyaviy ahamiyati ham shundadir»¹. O'zbek eposining birinchi tadqiqotchilarini V.M.Jirmunchkiy va X.T.Zarifovlarning ta'rificha doston janrining yana bir muhim xususiyati – uning o'ziga xos ravishda hisobga olingan. Dostonlarda haqiqiy va ideal tarix birlashib, chatishib ketgan, xalqimizning axloqiy, falsafiy, diniy qarashlari, hayoti, urf-odat va maishati tarzda

¹ В.Жирмунский. Народный героический эпос. Л., 1962, 195-б.

ifodalangandir. O'zbek xalq dostonlari ko'p tirkamli va ko'p mavzuli bir ijoddir. U uzoq asrlar davomida yaratilib, turli ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda kuylanib kelindi, shu tariqa unda turli zamonlar qatlami vujudga keldi. Bu hol ularning har jihatdan asoslangan ilmiy tasnifi berishi muyyan turlarga bo'lib o'rganishni nihoyatda qiyinlashtiradi.

Halqimiz orasida dostonlar ham bir necha turlarga bo'linadi fanda o'zbek xalq dostonlarining bir necha klassifikatsiyalar mavjud. O'zbek xalq dostonlari:

- qahramonlik eposi;
- jangomalar;
- tarixiy mavzudagi dostonlar;
- romantik dostonlar;
- adabiy dostonlar;
- yangi dostonlar kabilarga bo'lib, «Guro'g'li» turkumini oladilar.

Shu bilan birga, xalq dostonlari og'zaki va yozma dostonlar tarzida ikkiga bo'linadi. Og'zaki dostonlar:

- qahramonlik;
- jangnoma;
- tarixiy;
- sof sevgini kuylovchi;
- romantik.

O'zbek xalq dostonlari jahon xalqlari eposlari singari o'zining yuksak g'oyaviyligi, badiiy kamoloti bilan alohida o'rinn tutadi. Doston epik ijodiyotining juda qadimiy turi sifatida barcha xalqlar og'zaki ijodiyotida mavjud. «Alpomish», «Rustamhon», «Go'ro'g'li» kabi o'zbek dostonlarining yaratilishi xalq ogzaki ijodiyoti tarixida noyob uchraydigan hodisalardan bo'lib, ular umummadaniyat xazinasiga qo'shilgan bebahो ma'naviy hissa bo'lib sanaladi. O'zbek «Alpomish»i qoraqalpoq va qozoqlarning «Alpomo's»i, o'g'uzlarning «Bomsi-bayrak» asari, tatarcha va boshqurdcha «Appamisha va Barchin xiluu», uyg'urcha «Alip Manash» va boshqa turkiy xalqlarning juda katta hududidagi tarqalgan qadimiy eposini muayyan o'zgarishlar bilan bizgacha etib kelgan namunalari bo'ladi.

«Alpomish» - vatanparvarlik, qahramonlik, mardlik, sevgi va do'stlik va to'g'rilik haqidagi doston. Unlagi bu milliy an'analar, urf-odatlar, umuminsoniy va milliy qadriyatlar juda ko'p obrazlar orqali tasvirlanadi. Kelajak avlodlarimizni xalq merosi, qadriyatlarni hurmat qilishga ularni o'rganishga yo'llaydi. Respublikamiz mustaqilika erishgach, qadriyatlarimizni har taraflama o'rganishga katta e'tibor bilan qaralmoqda. Hozirgi vaqtida ta'lim tizimida xalqimizning bola tarbiyasidagi qadimiy milliy ta'lim-tarbiya tajribasi asosiga tayanish maqsad qilib qo'yilgan ekan xalqimizning sevimli dostoni «Alpomish» bu borada eng muhim manbalardan sanaladi. Undagi milliy tarbiya imkoniyatlarini ochib berish milliy qadriyatlarimizni o'rganish va ularni ta'lim tarbiya iste'moliga kiritish asosiy vazifalarimizdan sanaladi.

Biz dostonda ifodalangan ma'naviy – axloqiy qadriyatlarni quyidagicha turkumlashtirdik:

- Oilaviy qadriyatlar.
- Madaniy-ma'rifiy qadriyatlar.
- Badiiy va estetik qadriyatlar.
- Mehnat qadriyatları.
- Maishiy turmushga oid qadriyatlar.
- Ma'naviy-ruhiy qadriyatlar.
- Ijtimoiy-siyosiy qadriyatlar.

Shunday ekan, oilada bolalarni xalq og'zaki ijodi namunalari asosida tarbiyalanar ekan, ayniqsa rivoyat va dostonlarda ma'naviy - axloqiy fazilatlarni tarkib toptirishda katta imkoniyatlarga ega.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lif to'g'risida»gi Qonuni. 2020 yil 23 sentabrdagi O'RQ-637 son
2. Абдуллаев К. Ф., Жураев Б. Т. Формирование правильной осанки ребенка в семье //Вестник науки и образования. – 2020. – №. 21-3 (99). – С. 30-33.
3. Жураев Б. Т., Абдурахмонова Д. У. Эстетическое развитие школьников средствами узбекского музыкального фольклора //Вестник Чувашского государственного института культуры и искусств. – 2019. – №. 14. – С. 77.
4. Khodjaev B., Juraev B., Amonov M. Forming the spirituality of students and youth through pilgrimage tourism //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2023. – Т. 420. – С. 10017.
5. Емельянова И. Е., Абдуллаев К. Ф. ББК 74.200. 5я73 Е 60. – 2020.
6. Umurova M. Y. Practical Possibilities of Spiritual-Moral Formation through Folk Songs //Procedia of Philosophical and Pedagogical Sciences ISSN. – Т. 2795. – №. 546X. – С. 55.
7. Umurova M. Y. Ideological and artistic features of folk singing //Multidisciplinary Journal of Science and Technology. – 2023. – Т. 3. – №. 5. – С. 77-80.
8. Umurova M. Y. Formation of Patriotic Feeling in Youth Students through Folk Songs //Pioneer: Journal of Advanced Research and Scientific Progress. – 2022. – Т. 1. – №. 4. – С. 99-103.
9. Yoshiyevna U. M. BUXORO FOLKLOR QOSHIQLARINING USLUBLARI VA TARIXI //Journal of Universal Science Research. – 2023. – Т. 1. – №. 12. – С. 299-302.
10. Umurova M. Y. Oilaviy marosim qo 'shiqlarini o 'rganishni to 'garak va milliy bayramlar asosida amalga oshirish //Экономика и социум. – 2023. – №. 3-2 (106). – С. 317-321.
11. Yoshiyevna U. M. The emergence and stages of development of navruz //Herald pedagogiki. Nauka i Praktyka. – С. 8.
12. Yoshiyevna U. M. Musiqa ta'limali bolalar folklor qo 'shiqlarini o 'rgatish pedagogik muammo sifatida //TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN. – 2023. – Т. 1. – №. 4. – С. 156-162.
13. Умирова М. Ё. РОЛЬ ТРУДОВЫХ ПЕСЕН В ФОЛЬКЛОРЕ //Miasto Przyszlosci. – 2023. – Т. 43. – С. 97-101.
14. Умирова М. XALQ QO'SHIQLARI VATANPARVARLIK TUYG'USINI RIVOJLANTIRISH VOSITASI SIFATIDA //Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences. – 2024. – Т. 4. – №. 3.
15. Qarshiboyeva G. Oilada bolalarni xalq og 'zaki ijodi na'munalari asosida tarbiyalash //Архив Научных Публикаций JSPI. – 2020.
16. Одилханович Ш. Қ. и др. ОИЛАДА БОЛАЛАРНИ ТАРБИЯЛАШДА ЎЗБЕК ХАЛҚ ПЕДАГОГИКАСИ МАНБААЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ //TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2021. – Т. 1. – №. 5. – С. 28-32.
17. Мирзарахимова С. Т. Фарзанд тарбиясида халқ педагогикаси манбаларидан фойдаланиш //Academic research in educational sciences. – 2022. – Т. 3. – №. 6. – С. 1037-1042.
18. Ортиков О. Р. Махалла как социально-культурный очаг народа //Научное пространство: актуальные вопросы, достижения и инновации. – 2020. – С. 20-23.
19. Сайдназарова Г. Б. Навык педагогического влияния //Вестник магистратуры. – 2019. – №.

